

MOTAM MAROSIMLARI VA ULARNING TIL VOSITALARI ORQALI
IFODALANISHI NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAПОХОРОННЫЕ ОБРЯДЫ И ИХ ВЫРАЖЕНИЕ ЧЕРЕЗ ЯЗЫКОВЫЕ
СРЕДСТВА В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХFUNERAL RITUALS AND THEIR EXPRESSION THROUGH LINGUISTIC
MEANS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Zamira Xusanova Ma'rufjon qizi

Anotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va nemis xalqlarida motam marosimlarining til vositalari orqali ifodalanish jarayoni lingvokulturologik, sotsiopsixologik hamda pragmatik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki xalqning motam madaniyatidagi til birliklarining milliy-madaniy mohiyatini aniqlash hamda ularning semantik, emotsional va konseptual xususiyatlarini qiyosiy jihatdan o'rganishdan iborat.

Maqolada o'zbek tilidagi motam leksikasi diniy e'tiqod, an'anaviy qadriyat va ijtimoiy ong bilan uzviy bog'liq ekani, nemis tilida esa motam nutqi ko'proq shaxsiy kechinmalar, ruhiy og'riq va ijtimoiy hamdardlikni ifodalashi ta'kidlanadi. Shuningdek, marosim tili tarkibida qo'llaniladigan barqaror birikmalar, metaforalar va ramziy ifodalar xalqning dunyoqarashi, tarixiy xotirasi hamda diniy-falsafiy tafakkurini namoyon etishi ko'rsatib o'tiladi.

Tadqiqotda motam leksikasining semantik qatlamlari, ritual nutqdagi ekspressivlik darajasi va kommunikativ funksiyalari alohida tahlil qilinib, har ikki tildagi birliklarning tarjima va madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola natijalari lingvokulturologiya, frazeologiya va tarjimashunoslik sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy xulosalarni beradi.

Kalit so'zlar: motam tili, ritual nutq, lingvokulturologiya, leksik-semantika, ramz, metafora, o'zbek tili, nemis tili, pragmatika.

Annotation: This article examines the expression of funeral rituals in Uzbek and German languages through linguistic and cultural analysis based on linguoculturological, sociopsychological, and pragmatic approaches. The main objective of the research is to identify the national and cultural essence of linguistic units related to mourning traditions and to compare their semantic, emotional, and conceptual features.

The study reveals that in the Uzbek language, mourning vocabulary is closely associated with religious beliefs, traditional values, and social consciousness, while in the German language, mourning expressions tend to reflect personal emotions, spiritual pain, and social empathy. Furthermore, stable expressions, metaphors, and symbolic means used

in ritual speech are shown to represent each nation's worldview, historical memory, and religious-philosophical thought.

The research also highlights the semantic layers, expressive functions, and communicative roles of mourning vocabulary and emphasizes its importance for translation studies and intercultural communication. The results of the study contribute to the fields of linguoculturology, phraseology, and comparative linguistics.

Keywords: *mourning language, ritual speech, linguoculturology, lexical semantics, symbol, metaphor, Uzbek language, German language, pragmatics.*

Аннотация: В данной статье рассматривается выражение похоронных и траурных обрядов в узбекском и немецком языках с точки зрения лингвокультурологического, социопсихологического и прагматического подходов. Основная цель исследования выявить национально-культурную сущность языковых единиц, связанных с традициями траура, а также сопоставить их семантические, эмоциональные и концептуальные особенности.

Отмечается, что в узбекском языке лексика траура тесно связана с религиозными верованиями, традиционными ценностями и общественным сознанием, тогда как в немецком языке речевые выражения траура чаще отражают личные переживания, духовную боль и сочувствие. Кроме того, устойчивые выражения, метафоры и символические образы, используемые в ритуальной речи, отражают мировоззрение, историческую память и философско-религиозные взгляды народа.

В работе анализируются семантические уровни, экспрессивность и коммуникативные функции траурной лексики, а также подчеркивается её значение для переводоведения и межкультурной коммуникации. Полученные результаты могут быть использованы в лингвокультурологии, фразеологии и сопоставительном языкознании.

Ключевые слова: *траурная лексика, ритуальная речь, лингвокультурология, лексико-семантика, символ, метафора, узбекский язык, немецкий язык, прагматика.*

Til - bu nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning ruhiy olami, tafakkuri, urf-odatları va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan ijtimoiy hodisadir. Har bir millatning o'lim, motam va yo'qotish kabi muhim hayotiy jarayonlarga bo'lgan munosabati uning tili orqali ochiq ifodasini topadi. Shu sababli motam marosimlari bilan bog'liq so'z va iboralar millatning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi va axloqiy qadriyatlari haqidagi muhim lingvokulturologik manba sifatida baholanadi.

Motam tili inson hayotidagi eng nozik ruhiy kechinmalarni, azob, sabr-toqat, e'tiqod va tasallini ifodalovchi vosita sifatida til tizimida alohida o'rin tutadi. U xalqning o'limga bo'lgan falsafiy qarashlarini, ijtimoiy birdamlikka intilishini va hayot-mamot muvozanatini qanday anglashini ko'rsatadi. Har bir xalq motam

jarayonini o'zining mentaliteti, ijtimoiy qadriyatlari va diniy dunyoqarashidan kelib chiqib shakllantiradi. Shu bois motam tili til, madaniyat va psixologik tafakkur chorrahasida joylashgan murakkab ijtimoiy hodisadir.

O'zbek xalqida motam bilan bog'liq nutqiy madaniyat asosan islamiy an'ana, sabr, duo va xotira tushunchalari bilan uzviy bog'liq. O'zbek tilidagi "olamdan o'tmoq", "rahmatli bo'lmoq", "jannatdan joy olmoq", "sabr bersin", "yuragi qon bo'lmoq" kabi iboralar o'lim mavzusini yumshatish, azani ifoda etish va marhumni ezgu so'zlar bilan yod etish maqsadida shakllangan. Bunday ifodalar xalq tafakkuridagi taqdirga ishonch, ilohiy adolat va sabr tushunchalarini ham o'zida aks ettiradi.

Nemis tilidagi motam nutqi esa ko'proq psixologik introspeksiya ya'ni shaxsiy kechinmalar va ruhiy og'riqlarni ifodalashga yo'naltirilgan. "Er hat seinen Verlust schwer ertragen" (U yo'qotishni og'ir kechirdi), "in tiefer Trauer sein" (chuqur motamda bo'lish), "sein Herz ist gebrochen" (yuragi sinib ketgan) kabi iboralar insonning shaxsiy hissiy iztiroblarini ifoda etadi. Nemis xalqining motam madaniyatida individualizm va ruhiy tahlil ustunlik qiladi, bu esa xalqning falsafiy tafakkurida o'limni hayotning tabiiy davomi, ammo chuqur ruhiy sinov sifatida talqin etishini ko'rsatadi.

Har ikkala tildagi motam nutqining umumiy jihati shundaki, ular insoniy his-tuyg'ularni ifoda etishda ramziy vositalar, metaforalar va diniy-falsafiy timsollardan foydalanadi. Biroq ularning ma'no qatlamlari, ifoda uslubi va madaniy asoslari turlicha: o'zbek madaniyatida motam jamoaviy hamdardlik va ruhiy birdamlikni kuchaytirs, nemis madaniyatida shaxsiy iztirob, ruhiy introspeksiya va xotiraga hurmat markazda turadi.

Mazkur tadqiqot ana shu madaniy-falsafiy farqlarni til orqali ochib berishga, o'zbek va nemis tillaridagi motamga oid leksik birliklarning semantik, stilistik, emotsional va pragmatik jihatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari tilning marosimiy va ritual funksiyasini o'rganishda, shuningdek lingvokulturologiya, frazeologiya va tarjimashunoslik fanlarida nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilshunoslikda motam marosimlari va ularning lingvistik ifodasi masalasi xalq madaniyatining semantik, psixologik hamda pragmatik qatlamlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ushbu mavzu etnolingvistika, madaniyatlararo kommunikatsiya va lingvokulturologiya yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, xalqning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi va ijtimoiy qadriyatlari tilda qanday aks etishini ochib beradi. O'zbekiston olimlari tomonidan motam marosimlariga oid tahlillar asosan folklor, etnografiya va diniy an'analar nuqtayi nazaridan

o'rganilgan⁷⁵. Xususan, A. Madrahimov, M. Jo'rayev, Sh. Toshpo'latov kabi tadqiqotchilar xalq og'zaki ijodidagi yo'qlov, marsiya va motam qo'shiqlarining ma'naviy-estetik ahamiyatini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, o'zbek xalqining motam tili asosan hamdardlik, sabr, tavakkal va taqdirga bo'ysunish g'oyalari asosida shakllangan bo'lib, bu holat diniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Nemis tilida esa motam ifodasi masalasi lingvopragmatika va kognitiv tilshunoslik doirasida keng o'rganilgan⁷⁶. G. Lakoff, E. Wierzbicka, H. Gruber singari olimlar emotiv leksika va ritual diskurs tushunchalari orqali nemis madaniyatida motam nutqining shaxsiy his-tuyg'ularni verbal ifodalashdagi rolini yoritganlar. Shuningdek, G. Drosdowski va D. Mertenlarning tadqiqotlarida nemis tilidagi "Mein herzliches Beileid", "Ich traure mit Ihnen" kabi kondolenz ifodalari psixologik yaqinlik, empatiya va insoniy birdamlikni bildiruvchi kalit birliklar sifatida baholangan. O'zbek va nemis madaniyatlari taqqoslanganda, o'zbek motam nutqi ko'proq diniy e'tiqod va jamoaviy birdamlik asosida shakllangan bo'lsa, nemis tili orqali ifodalangan motam nutqi shaxsiy kechinma, samimiy hamdardlik va ruhiy iztirobning ochiq ifodasi bilan ajralib turadi.

Ushbu tadqiqotda motam marosimlari tili o'zbek va nemis madaniyatlarida qanday til vositalari orqali ifodalanishini aniqlash maqsadida taqqoslama, diskursiv va semantik-funksional yondashuvlardan foydalanildi. Tahlil uchun 20 dan ortiq manbalar marsiya, yo'qlov qo'shiqlari, diniy matnlar hamda zamonaviy media materiallari (gazetalar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar) tanlab olindi. Tadqiqot davomida leksik-semantik, pragmatik, diskursiv va kross-madaniy tahlil metodlari qo'llanilib, motamga oid so'z va iboralarning ma'no qatlamlari, so'zlovchining hissiy holati, madaniy kontekst hamda har ikki tildagi umumiy va farqli jihatlar o'rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi til vositalari orqali motam marosimlarida ifodalanadigan hissiy, diniy va ijtimoiy qadriyatlarni aniqlash, shuningdek, bu jarayonda madaniy tafakkur va milliy dunyoqarashning o'ziga xos farqlarini yoritishdan iboratdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'zbek va nemis tillarida motam marosimlari bilan bog'liq til birliklari chuqur semantik, emotsional va madaniy qatlamlarga ega ekanini ko'rsatdi. Har ikki tilda motam tili inson ruhiyatidagi yo'qotish, iztirob, sabr va umid kabi hissiy kechinmalarni ifodalovchi muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi.

⁷⁵ Jo'rayev M. Xalq marosimlari va ularning etnopedagogik ahamiyati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – B. 185.

⁷⁶ Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – P. 328.

O'zbek tilidagi motam tili asosan diniy e'tiqod, ijtimoiy birdamlik va milliy an'analar bilan chambarchas bog'liq. "Olamdan o'tmoq", "rahmatli bo'lmoq", "ko'ngli dog' tushmoq", "ruhiga duo qilmoq" kabi iboralar o'limni bevosita aytishdan qochib, uni eufemistik va estetik shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Bunday iboralar xalqning diniy tafakkuri, marhumga bo'lgan hurmati va sabr-tavakkal tushunchalariga asoslanadi. O'zbek madaniyatida "o'lim" so'zining to'g'ridan-to'g'ri aytilishi noqulay his-tuyg'ularni uyg'otadi, shu bois u ramziy yoki diniy ma'nodagi iboralar bilan almashtiriladi.

Nemis tilida esa motam tili ko'proq shaxsiy kechinmalar, empatiya va individual ruhiy og'riqni ifodalashga yo'naltirilgan. "Sterben" (o'lmoq), "verstorben sein" (vafot etmoq), "sein Leben verlieren" (hayotdan ko'z yumdi) kabi neytral iboralar bilan bir qatorda, "Trauer", "Leid", "Verlust", "Schmerz" kabi emotsional so'zlar keng qo'llaniladi. "Mein tiefes Beileid" (chuqur ta'ziyamni bildiraman), "Ich trauere mit Ihnen" (siz bilan birga motamdaman) kabi frazeologik birikmalar nemis jamiyatidagi samimiylik, ruhiy yaqinlik va hissiy birdamlikni ifodalaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek motam nutqida jamoaviy his-tuyg'u va diniy motivlar ustunlik qilsa, nemis tilida individual iztirob va hissiy samimiyat birinchi o'rinda turadi. O'zbek motam marosimlarida so'zlovchi ko'pincha marhumni duo bilan eslash, Qur'on oyatlarini tilga olish yoki sabr tilash orqali diniy mazmundagi nutqiy aktlarni amalga oshiradi. Bu holat o'zbek xalqining ruhiy birligi va taqdirga bo'lgan ishonchini aks ettiradi. Nemis madaniyatida esa motam tili ko'proq yozma shakllarda kondolenziya xatlari, nekrologlar yoki raqamli media platformalaridagi ta'ziya postlari orqali ifoda etiladi, bu esa jamiyatning zamonaviy kommunikativ madaniyati bilan bog'liq.

Lingvokulturologik jihatdan qaraganda, har ikki tilda "xotira", "hamdardlik" va "rahm-shafqat" tushunchalari markaziy semantik o'rinni egallaydi. Biroq ularning ifoda shakli farqli: o'zbek tilida marhumni ilohiy nuqtai nazardan yod etish va jamiyat bilan birgalikda sabr qilish g'oyasi ustun bo'lsa, nemis tilida shaxsiy ruhiy kechinmalarni ochiq ifodalash, individual og'riqni tan olish madaniy qadriyat sifatida qaraladi.

Motam tili tarkibida metaforik ifodalar alohida o'rin tutadi. O'zbek tilida "ko'z nuri so'nmoq", "olamdan o'tmoq", "ko'ngli dog' tushmoq" kabi metaforalar o'limni yorug'lik, yurak yoki tabiat bilan bog'lab, uni yumshoq semantik shaklda ifodalaydi. Nemis tilidagi "sein Herz ist gebrochen" (yuragi sinmoq), "die Zeit heilt alle Wunden" (vaqt barcha yaralarni tuzatadi) kabi iboralar esa insoniy iztirobni tabiiy va psixologik jarayon sifatida ko'rsatadi.

Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, motam tili har bir xalqning diniy, ijtimoiy va ruhiy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. O'zbek tili orqali motam nutqi

xalqning sabr, taqdirga ishonch va iymon kabi ma'naviy asoslariga tayanadi, nemis tili esa yo'qotish og'rig'ini ochiq ifodalash orqali ruhiy tozalash va ichki yengillik g'oyasini ilgari suradi.

Demak, motam marosimlari tili bu faqat qayg'u va yo'qotish holatini aks ettiruvchi nutq emas, balki xalqning axloqiy qadriyati, diniy dunyoqarashi va madaniy xotirasining lingvistik aksidir. Ushbu natijalar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlaydi hamda o'zbek va nemis xalqlarining dunyoni idrok etishidagi farqli, ammo insoniylikka asoslangan umumiy qirralarni ochib beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va nemis tillaridagi motam marosimlariga oid til birliklari nafaqat leksik yoki grammatik farqlarga, balki har ikki xalqning madaniy, diniy va psixologik tafakkuriga ham chuqur ildiz otgan. Har bir xalq motamni o'ziga xos tilda, o'ziga xos ruhda va o'z qadriyatlari doirasida ifodalaydi.

O'zbek motam tili asosan diniy e'tiqod, ijtimoiy birdamlik va sabr fazilatiga tayangan holda shakllanadi. O'lim hodisasi bevosita aytilmay, ramziy yoki eufemistik tarzda ifodalanadi, bu esa xalqning ruhiy nozikligi va marhumga bo'lgan chuqur hurmatini aks ettiradi. "Olamdan o'tmoq", "ruhiga duo qilmoq", "Alloh rahmat qilsin" kabi iboralar diniy-falsafiy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liq bo'lib, xalqning hayot va o'limni bir-birini to'ldiruvchi tabiiy jarayon sifatida qabul qilishini ko'rsatadi.

Nemis motam tili esa asosan insonning individual kechinmalari, ichki iztiroblari va samimiy his-tuyg'ulariga asoslanadi. "Mein tiefes Beileid", "Ich traure mit Ihnen" kabi iboralar empatiya, hamdardlik va psixologik yaqinlikni ifodalaydi. Bu madaniyatda o'limni tabiiy hayot yakuni, ruhiy og'riqni esa insoniy jarayon sifatida qabul qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlil shuni isbotladiki, o'zbek tili motam marosimlarida jamoaviy ruh, diniy ramzlar va sabr g'oyasi ustun bo'lsa, nemis tilida individual psixologik yondashuv, hissiy ochiqlik va empatik muloqot muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, har ikki tilda "xotira", "sadoqat" va "rahm-shafqat" tushunchalari markaziy semantik maydonni tashkil etadi bu esa insoniyatning umumiy ruhiy va axloqiy qadriyatlarini birlashtiruvchi jihatdir.

Tadqiqotning lingvokulturologik natijalari shuni ko'rsatadiki, motam tili faqatgina yo'qotish holatini ifodalash vositasi emas, balki xalqning axloqiy-ma'naviy dunyoqarashini, ruhiy bardoshlilikini va madaniy xotirasini til orqali avloddan avlodga yetkazuvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Shu bois o'zbek va nemis motam tili qiyosiy o'rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixolingvistika va tarjimashunoslik sohalarida ham dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida qaralishi mumkin.

1. Gruber H. Ritual Discourse and Emotional Expression in German Culture. – Berlin: De Gruyter, 2001. – P. 214.
2. Hasanov I. O'zbek tilida diniy va marosimiy leksikaning lingvopragmatik tahlili. – Termiz: TDPU nashriyoti, 2022. – B. 188.
3. Jo'rayev M. Xalq marosimlari va ularning etnopedagogik ahamiyati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – B. 185.
4. Karimova M. Til va madaniyat: Etnolingvistik yondashuvlar. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – B. 192.
5. Lakoff G. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 242.
6. Lutz C. The Anthropology of Emotions. – New York: Routledge, 2013. – P. 284.
7. Madrahimov A. O'zbek xalq og'zaki ijodida motam marosimlari va ularning estetik ifodasi. – T.: Fan, 2015. – B. 210.
8. Qodirova D. Madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjimada emotsional leksikaning roli. – T.: Innovatsion ta'lim, 2023. – B. 167.
9. Schmitt P. Kulturelle Aspekte der Trauerkommunikation in Deutschland. – Frankfurt: Peter Lang Verlag, 2016. – P. 205.
10. Sharipova Z. Lingvokulturologiya va milliy tafakkur: nazariya va amaliyot. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2021. – B. 240.
11. Toshpo'latov Sh. O'zbek xalqining marosim madaniyati va diniy qadriyatlari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2020. – B. 197.
12. Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – P. 328.
13. Хусаинов Б. Til va milliy mentalitet: madaniy semantika asoslari. – T.: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020. – B. 176.